

## AQLI ZAIF BOLALAR NUTQIDAGI MUAMMOLAR



### Abstract:

Keltirilgan maqolada aqli zaif o'quvchilarning nutq nuqsonlari intelektual va hissiy rivojlanish hamda boshqalar bilan muloqot qilishiga to'sqinlik qilishi, aqli zaif o'quvchilarning erkin muloqot qilishda qiyinchiliklar kuzatilishi, muammo va yechimlar.

### Key words:

Nutq, aqil, til, sonor, xususiyat, tafakkur, og'zaki va yozma nutq, aqli zaif bolalar nutqi.

### Author of the article:

Fozilova Matluba  
Karimjon qizi

### Workspace (Education subject)

Nizomiy nomidagi Toshkent  
davlat pedagogika universiteti

Nutq - inson hayotida muhim ahamiyatga ega tushuncha. Nutq tasir xususiyatiga ega bo'lish uchun u boy bo'lish kerak. Har bir kishining nutqi individual, ya'ni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Nutq inson tafakkuri uning ongi bilan bog'liq. Nutqda kishinig o'y-fikrlari, hayol shakllanadi va mavjud bo'ladi.

Nutq og'zaki, yozma, tashqi va ichki bo'ladi. Yozma nutq og'zaki nutqdan shakllanganligi, so'zlarning sinchkovlik bilan tanlab olinishi va ishlatalishi grammatik tomondan aniq, ammo murakkab shakllanganligi, og'zaki nutqqa xos bo'lgan mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan farq qiladi. Nutq og'zaki va yozma shakilda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi.

Aqli zaif o'quvchilarning nutq nuqsonlari intelektual va hissiy rivojlanish hamda boshqalar bilan muloqot qilishiga to'sqinlik qiladi. Aqli zaif o'quvchilarning o'ziga xos xususiyati erkin muloqot qilishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Nutqning sustligi qiziqishni pasayishga sabab bo'ladi. Qiziqishning pasayishi bilim olish, o'rganishni susaytiradi.

Aqli zaif bolaning nutq xususiyati, ularning psixologiyasi qoidalarga bo'yusunmaydigan sharoitlarda, anomal rivojlanish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlariga qaraganda ancha kech gapiradilar. Birinchi so'zni 3-4, ba'zida 5-6 yoshgacha kechikishi mumkin.

Aqli zaif bolalar juda ko'p tovushlarni, ya'ni sirg'aluvchi, til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatinining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish ko'proq foizni tashkil etadi. Aqli faoliyatning rivojlanishidagi o'g'ishlar kattalar va ularning atrofidagi tengdosh bolalar bilan o'zaro muloqotda namoyon bo'ladi. Bolaga berilgan e'tibor, ko'p vaqt individual yondashuv orqali ulardan ijobiy natijalar kutishimiz mumkin. Agar aqli zaif bola bolalar guruhidan tashqarida tengdoshlar bilan muloqot qilishi yetarli bo'lmasa bu jarayon sekinlashadi. Ular so'zlarning ma'nosini tushunishlari mumkin, lekin uni hech qachon to'g'ri ishlata olmasliklari mumkin. Aqli zaif o'quvchilar so'zlarni umumlashtirishga qiynaladilar ya'ni ular daftар, ruchka, qalam chizg'ich, kitob umumiyl nom bilan o'quv qurollari olma, uzum, banan, qulupnay umumiyl nom bilan mevalar deb nomlanishi yoki o'qituvchi, quruvchi, shifokor, haydovchi umumiyl nom bilan kaslar deb nomlashga qiynaladi. Ular o'z nutqlarida sodda gaplardan

# *«Development of science» international conference*

foydalanadi, qo'shma gaplardan deyarli foydalanishmaydi. Sodda gaplar ham asosan gapning bosh bo'laklari: ega va kesimdan iborat boladi. Misol uchun: Botir o'ynadi, olma terdim, maktab bordim kabi. Ikkinci darajali gap bo'laklari bo'Igan aniqlovchi, to'ldiruvchi, holdan deyarli foydalanishmaydi.

I.P.Kornevning kuzatishlaricha yordamchi maktabga o'qishga qabul qilinayotgan vaqtida aqli zaif bolalarning 60% turli talaffuz qiyinchiliklariga ega bo'ladilar. Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar bartaraf etilganidan so'ng ham aqli zaif bolalar tovushlarni alohida talaffuz eta olsalar ham bu tovushlarni mustaqil so'zlashishda qo'llay olmaydilar.

Ularning so'z boyliklar zaif rivojlangan.Yoshi kattaroq bo'Igan o'quvchilar ham doimiy duch keladigan obyektlarni ham nomlashga qiynaladilar. Buyumlarning sifatlari va xossalarni bildiruvchi so'zlarni o'z nutqlarida ishlatmaydi.Ular lug'atining kambag'alligi fikri, his-tuyg'ularini erkin ifoda etishga to'sqinlik qiladi. Aqli zaif bolalar nutqida bir xil so'z turkumlaridan foydalanganligi sababli nutqi noaniq bo'lib qoladi.

Mavhum so'zlar va ko'chma ma'nodagi so'zlarni tushunishi ancha qiyinroq. Mashaqqat, omad, mag'rurlik, baraka kabi mavhum tushunchalarini va ko'chma ma'noli gaplar "oq oltin"ni paxta emas haqiqatdan ham oltinni oq rangda deb tushunishadi yoki "uzukning ko'zi" ni esa bu narsaga ishonish qiyin chunki uzukni ko'zi bo'lmaydi degan xulosaga kelishadi. Aqli zaif o'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun atrofdagilar ularning yaqin insonlari hamkorlikda faoliyat olib borishlari zarur. Ulardagi amaliy faoliyat qiziqishni oshirishga yordam beradi va nutqini asta sekin boyitishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Amirsaidova."Maxsus psixalogiya"(oligofrenopedagogika).T-2018.
2. "Специальная психология" под ред. Лубовского В.И.: М. 2005.
- 3.L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova "Maxsus psixalogiya"Т-2